



## O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING ROLI

«TIQXMMI» MTUningQarshi irrigatsiya  
va agrotexnologiyalar  
instituti talabasi

Sayfullayev Sirojjon Ikrom og‘li

**Annotatsiya:** Maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Jumladan xorijiy investisiyalar qo‘shma korxonalar tashkil etish, xorijiy investorlarga to‘liq tegishli bo‘lgan korxonalar yaratish, xususiylashtirishda qatnashish, xorijiy sheriklar bilan bank tuzish, qimmatli qog‘ozlarni sotib olish, yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqiga ega bo‘lish, erkin iqtisodiy hududlarda faoliyat olib borishda juda katta va muhim ahamiyatga egaligi ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** investitsiya, aksiya, obligasiyalar, sof foyda, kredit, xarajat, davlat korxonasi, texnologiya, omonatlar, banklar, foyda, amortizatsiya, soliq.

**Аннотация:** В статье показано значение иностранных инвестиций в развитии экономики Узбекистана, в том числе иностранных инвестиций, создания совместных предприятий, создания предприятий, полностью принадлежащих иностранным инвесторам, участия в приватизации, создания банка с иностранными партнерами, ценных бумаг. право покупать землю, использовать землю и другие природные ресурсы и действовать в свободных экономических зонах очень важно.

**Ключевые слова:** инвестиции, акции, облигации, чистая прибыль, кредит, расход, государственное предприятие, технология, сбережения, банки, прибыль, амортизация, налог.

**Abstract:** The article shows the importance of foreign investments in the development of the economy of Uzbekistan. Including foreign investments, establishing joint ventures, creating enterprises fully owned by foreign investors, participating in privatization, establishing a bank with foreign partners, securities It is considered that the right to buy land, to use land and other natural resources, and to operate in free economic zones is very important.



**Key words:** investment, stock, bond, net profit, loan, expense, state enterprise, technology, savings, banks, profit, depreciation, tax.

Bir davlatdan boshqa davlatga daromad olish uchun yo'naltirilgan har qanday shakldagi mulkni to'la qonli ravishda xorijiy investitsiya deyishimiz mumkin. Ammo shunday mulk shakllari borki, biz ularni xorijiy investitsiya deya olmaymiz. Masalan, elchixonona chet davlat mulki hisoblanadi, yoki xorijiy fuqaro shaxsiy uy sotib olsa bu xorijiy shaxs mulki hisoblanadi, lekin xorijiy investitsiya bo'la olmaydi.

Xorijiy investitsiyalar - bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutloq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir.

«Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 3-moddasida «Chet ellik investorlar asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat obyektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, shuningdek chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari deb e'tirof etiladi». Xorijiy investitsiyalarining umumiy ta'rifini F. Xeniusning 1947 yil AQShda chop etilgan tashqi savdo lug'atining 2-nashrida quyidagicha berilgan: «Xorijiy investitsiyalar – bu bir mamlakat hududidan ikkinchi mamlakat hududiga kiritilgan, eksport kilingan investitsiyalar».

Chet el investitsiyalari deyilganda chet mamlakatlarning milliy iqtisodiyotga moddiy, moliyaviy va nomoddiy ko'rinishidagi muddatli qo'yilmalarning barcha shakllari tushuniladi. Bu quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: qo'shma korxonalarni tashkil qilishda o'z ulushi bilan qatnashish, xorijiy sarmoyadorlarga to'la tegishli bo'lgan korxonalarni barpo etish, xorijiy shaxslar tomonidan qimmatli qog'ozlarni, shuningdek, zayom va kreditlar olish.

Xorijiy investitsiyalar ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi.



Xorijiy investitsiyalar qo'shma korxonalar tashkil etish, xorijiy investorlarga to'liq tegishli bo'lgan korxonalarni yaratish, xususiylashtirishda qatnashish, xorijiy sheriklar bilan bank tuzish, qimmatli qog'ozlarni sotib olish, yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqiga ega bo'lish, erkin iqtisodiy hududlarda faoliyat olib borishda juda katta va muhim ahamiyatga egadir.

Xorijiy investitsiyalarga asosan 2 guruh omillar ta'sir ko'rsatadi:

1) iqtisodiy omillar:

-ishlab chiqarishning rivojlanishi va iqtisodiy o'sish sur'atlarining bir maromda ushlab turilishi;

-jahon va alohida mamlakatlar iqtisodiyotidagi chuqur tarkibiy siljishlarning amalga oshirilishi (ayniqsa, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari va jahon xizmatlar bozori taraqqiyoti ta'siri ostida olib borilishi);

-ishlab chiqarishni xalqaro ixtisoslashuvi va kooperasiyalashuvining chuqurlashuvi;

-jahon iqtisodiyoti transmilliylashtirilishining o'sib borishi (masalan, AQSh transmilliy korporasiya (TMK)lari xorijiy filiallarining mahsulot ishlab chiqarish hajmi AQSh tovar eksportidan 4 marotaba ortiqdir);

-ishlab chiqarishning baynalminallashuvi va integrasiya jarayonlarining chuqurlashib borishi;

-xalqaro iqtisodiy munosabatlarning faol rivojlanishi va boshqalar.

2) siyosiy omillar:

-kapital eksporti (importi)ni erkinlashtirish (erkin iqtisodiy hududlar (EIX), offshor hududlari va boshqalar);

-rivojlanayotgan mamlakatlarda industirlashtirish siyosatini olib borish;

-iqtisodiy islohotlarni olib borish (davlat korxonalarini xususiylashtirish, xususiy sektorni va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash);

-bandlik darajasini ushlab turish siyosatini olib borish va boshqalar.



Investitsiyalar zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan kurollanish, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish va aqliy imkoniyatlarini tiklashning asosiy vositadir. Aynan xorijiy investitsiyalar orqali milliy iqtisodiyot jonlanib, ishlab chiqarish zamonaviy, raqobatdoshlar tovarlar ishlab chiqarishga ixtisoslashib boradi. Bu esa o'z navbatida yangi ish o'rinlarining tashkil etilishi va mamlakatdagi mavjud iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning hal bo'lishiga olib keladi.

O'zbekiston ulkan xorijiy investitsiyalar yo'naltirilayotgan mamlakatlar guruhiga kirish uchun barcha shart-sharoitlarga, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun bir qator afzalliklarga ega. O'zbekiston jahon hamjamiyati oldida o'zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, dunyo xaritasida geografik joylashishi, tabiiy resurslarining tarkibi va zaxirasi, hukumat olib borayotgan iqtisodiy siyosat va boshqalar bilan muhim rol uynaydi.

Bozor iqtisodiyotining asosiy iqtisodiy tushunchalaridan biri investitsiyalar tushunchasi bugungi hayotimizga keng va tez kirib kelishining o'zi uning mohiyati va ahamiyatini, zarurligini ko'rsatadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yangi korxonalarining sonini tobora ortib borishi va barpo etilayotganligi hukumatimizning bu sohaga bo'lgan katta e'tibori va ularga yaratib berayotgan qulayliklari natijasidir. Shu boisdan ham mamlakatimizga xorijiy sarmoyalarni jalb etayotgan korxonalarini iqtisodiy rag'batlantirish va zaruriy sharoitlarni yaratib berish o'ta muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilgani asosiy omil bo'lib kelmoqda. Investitsiya muhiti – bu mamlakatdagi investitsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, me'yoriy-huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar majmui. Investitsiya muhiti eng avvalo quyidagi iqtisodiy omillar orqali belgilanadi: tabiiy shart-sharoitlar, shu jumladan foydali qazilmalar zaxiralari, ishchi kuchi malakasi va o'rtacha ish haqi darajasi, iqtisodiy kon'yunktura holati, ichki bozor sig'imi hamda tovarlarni tashqi bozorda sotish imkoniyatlari, kredit tizimi holati, soliqqa tortish darajasi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganligi, xorijiy kapitalga nisbatan davlat siyosati, unga nisbatan intiyozli shart-sharoitlarning belgilanganligi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan buyon qulay investitsiya muhitini yaratish davlatimiz iqtisodiy siyosatining markaziy masalalaridan biri bo'lib kelmoqda. Iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarining investision faoliyatini yanada jonlantirish, xorijiy investitsiyalarni,



avvalo to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish va ulardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirish, yangi ish o'rinlarini shakllantirish va bular asosida milliy iqtisodiyotimizni barqaror va dinamik rivojlanishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1213-sonli «O'zbekiston Respublikasining 2019 yilga investision dasturi haqida»gi Qarori tasdiqlangan bo'lib, ushbu dastur asosidagi kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish manbalari tarkibida bank tizimi investision kreditlarning ahamiyati yuqori bo'lmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, iqtisodiyotni erkinlashtirish va chet el investitsiyalarini jalb qilishning kengayib borishi darajasiga qarab investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solinish va bevosita chet el investitsiyalarini yangi loyihalarga, shuningdek, xususiy tadbirkorlik subyektlarining katta qismini investitsiya faoliyatiga jalb qilish eng ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Bunda chet el investitsiyalar oqimini rag'batlantirish, shu bilan birga milliy iqtisodiyot subyektlarining bu faoliyatda ishtirok etishini taqdirlash muhim o'rinda turadi. Shunday qilib davlat tomonidan investitsiya munosabatlarini tartibga solishning vazifasi, bir tomondan, bevosita chet el investitsiyalari oqimini oshirishdan, ikkinchi tomondan, milliy iqtisodiyotdagi xususiy mulkchilik subyektlarining qo'yilmalarini kengaytirishdan iborat bo'ladi.

#### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonuni, 1998 yil 30 aprel.
2. O'zbekiston Respublikasining "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi Qonuni, 1998 yil 30 aprel.
3. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 2014 yil 10 dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 7 apreldagi "O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4609-sonli Farmoni.



5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4434-sonli Farmoni.
6. Vahabov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. – T.: NOSHIR, 2011. – 712 s.
7. Gershman, M.A. Innovatsionniy menedjment – M.: Market DS Korporeyshn, 2010. – 482 s.
8. Golov R.S., Baldin K.V., Perederyaev I.I. Investitsionnoe proektirovanie: Uchebnik – M.: Dashkov i K o , 2010. - 368 s.
9. Goncharenko L. Menedjment investitsiy i innovatsiy. Uchebnik. – M.: "KNORUS", 2011 g. – 160 str. 10.Igoshin N.V. Investitsii. Organizatsiya, upravlenie i finansirovanie: Uchebnik. – M.: YuNITI-DANA, 2012. – 360 s.